

_____ sh.

«_____» _____ 20__ y.

Bir tomondan «Radioaloqa, radioeshittirish va televideniye markazi» MChJ («RRTM» MChJ), keyingi o‘rinlarda “Provayder” deb yuritiluvchi nomidan Ustav va O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi tomonidan 01.01.2021 yilda berilgan 597110-sonli Litsenziya asosida harakat qiluvchi Bosh direktor v.v.b. Tashpulatov Sh.Sh. va ikkinchi tarafdan “Abonent” deb yuritiluvchi _____, uning nomidan _____ asosida amal qilayotgan _____, birgalikda “Taraflar” deb yuritiluvchi, ushbu Shartnomani quyidagilar to‘g‘risida tuzdilar:

1. ASOSIY TUSHUNCHA VA ATAMALAR

- 1.1. Provayder** – «RRTM» MChJ, raqamli televideniye operatori tarmog‘i orqali tijorat asosida yer usti raqamli televideniye xizmatlarini taqdim etuvchi yuridik shaxs.
- 1.2. Abonent** – Provayder bilan mazkur shartnomani tuzgan, xizmatlar haqini to‘lagan va mazkur Shartnoma bilan belgilangan shartlar asosida xizmatlardan foydalanish huquqiga ega bo‘lgan yuridik shaxs.
- 1.3. DVB-T/T2** – Yer usti raqamli efir uzatish standarti (Digital Video Broadcasting Terrestrial).
- 1.4. Abonent uskunasi** – Provayder tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlardan foydalanish imkoniyatini yaratish uchun Abonentda o‘rnatiladigan, O‘zbekiston Respublikasida amal qiluvchi texnik reglamentlar va standartlarga muvofiq uskunaning ushbu turiga qo‘yiladigan texnik talablar hamda Provayderning shartli foydalanish tizimining talablariga muvofiq bo‘lgan texnik vosita yoki ularning majmuasi. Abonent uskunasi Abonent tomonidan sotib olinadi, uning mulki hisoblanadi va tegishli ravishda o‘rnatilgan bo‘lishi shart. Abonent uskunalariga quyidagilar kiradi:
- 1.4.1. Sarflanadigan materiallar** – koaksial kabel RG-6 (75 Om), shteker, konnektor, DMT diapazonli antenna.
- 1.4.2. Set-Top-Box (STB)** – raqamli televideniye signalini qabul qiluvchi va uni dekodlovchi qurilma, televizion qabul qilgich (qo‘shimcha moslama).
- 1.4.3. CAM-modul** – ichiga o‘rnatilgan DVB-T2 tyunerli televizorlarda raqamli televideniye pullik paketlariga kirish uchun zarur moslama.
- 1.4.4. Smart-karta** – Abonentni individuallashtirish va unga Xizmatlardan foydalanish huquqini berish imkoniyatini yaratuvchi mikroprotessor o‘rnatilgan elektron karta.
- 1.5. Xizmatlar** – qonun hujjatlari bilan belgilangan tartibda shartnoma asosida raqamli televideniye telekanallarining pullik paketlariga kirish imkoniyatini taqdim etish.
- 1.6. Qo‘shimcha xizmatlar** – Abonent uskunalarini montaj qilish, sozlash va ularga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha pullik xizmatlar, Qo‘shimcha telekanallar paketi hamda tasdiqlangan ro‘yxat va tariflar bo‘yicha Abonentga ko‘rsatiladigan boshqa pullik xizmatlar.
- 1.7. Telekanallar paketi (asosiy)** – Provayder tomonidan o‘rnatilgan va unga kirish ushbu Shartnoma shartlari asosida amalga oshiriladigan, Abonent tomonidan tanlangan telekanallar to‘plami.
- 1.8. Qo‘shimcha telekanallar paketi** – Asosiy bo‘lmagan va asosiy telekanallar paketi bilan birga bepul taqdim etilmaydigan, avtomatik tarzda ulanadigan hamda keyinchalik yoqish yoki o‘chirish imkoniyati mavjud bo‘lgan telekanallar to‘plami.
- 1.9. Ulanish** - Abonentni individuallashtirish va shartli kartasiz (smart kartasiz) ishlaydigan abonent uskunalaridan foydalangan taqdirda, unga Provayder xizmatlaridan foydalanish huquqini beruvchi xizmat;
- 1.10. Sayt** - www.uzdtv.uz manzilida joylashgan, Provayderning Internet tarmog‘idagi rasmiy sayti.
- 1.11. Shaxsiy kabinet** - Abonentning Provayder saytida joylashgan va Abonentga taqdim etiladigan xizmatlar haqida ma'lumot beruvchi, kirish maxfiy ma'lumotlar bilan (login va parol) himoyalangan maxsus qismi.
- 1.12. Faollashtirish (yoqish)** - Abonent uskunalarini Provayder xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini yaratish uchun faol holatga keltirish.
- 1.13. Nofaollashtirish (o‘chirish)** - faollashtirishga teskari bo‘lgan jarayon.
- 1.14. Shaxsiy hisob raqam** - Abonentga berilgan, Provayderning AHKTSida yozilgan takrorlanmas raqam, u Abonentning buyurilgan va taqdim etilgan xizmatlar uchun hisob-kitoblari tarixini va joriy holatini aks ettiradi, ushbu raqam Abonentning identifikatsiya raqami - «ID» hisoblanadi.
- 1.15. Xizmatlar amal qilish muddati** - Abonent tomonidan to‘langan kalendar davri, u xizmatlar taqdim etiladigan oylar bilan hisoblanadi.
- 1.16. Raqamli televizion xizmatlari taqdim etiladigan hudud (matnda bundan buyon “Hudud” deb ataladi)** - texnika me'yorlariga javob beradigan televizion signal qabul qilinadigan O‘zbekiston Respublikasi hududi.
- 1.17. Call-Center** - Abonentga axborot-maslahatlarga va texnik yordam taqdim etish xizmati (+998)78 1299000, 1065.
- 1.18. Provayderning javobgarlik zonasi** - Abonentning qabul qiluvchi anten nasidan boshlab raqamli signal qabul qiluvchi moslamagacha (STB/Cam – modul) taqdim etilgan signal sifati, hamda Provayder Xizmatlarni boshqarish uchun ishlatayotgan uskunalar.
- 1.19. Abonentning javobgarlik zonasi** - Abonent uskunalar, hamda Abonent egalik qilish yoki foydalanish huquqi bo‘lgan shaxsiy identifikatsiya ma'lumotlari (shaxsiy hisob raqam, shaxsiy kabinetda login va parol).
- 1.20. Avtomatlashtirilgan Hisob-Kitob tizimi (AHKT)** - Abonentlarni avtomatlashtirilgan holda hisobga olish, ularning Shaxsiy hisob raqamlari holati, abonent to‘lovini hisoblash, Xizmatlarni avtomatik ravishda boshqarish imkoniyatini beruvchi dasturiy vositalar majmuasi.
- 1.21. Abonent to‘lov** - Provayder Abonentga taqdim etayotgan asosiy va/yo‘q qo‘shimcha telekanallar paketi uchun har oylik tarif to‘lovi.
- 1.22. Foydalanuvchi** – provayder bilan shartnoma tuzmagan, ochiq tele-, radiokanallarni qabul qiluvchi yuridik yoki jismoniy shaxs.
- 1.23. Tovar belgisi** - Provayder xizmatlar ko‘rsatadigan “UZDIGITAL TV” tovar belgisi.

2. SHARTNOMA PREMDI

2.1. Proвайдер абонентга telekanallarning kodlangan asosiy va/yoki qo'shimcha telekanallar paketi ga kirish bo'yicha xizmatlarni, hamda Qo'shimcha xizmatlarni taqdim etadi.

2.2. Abonent asosiy va/yoki qo'shimcha telekanallar paketini tomosha qilishi bilan bog'liq barcha xatarlarni o'z zimmasiga oladi, shu jumladan ko'rish rejimlariga, yoshga oid cheklovlar, ruhiy ahvol va hokazoga rioya qilish, hamda Proвайдер aybsiz ehtimoliy xatoliklar, texnik uzilishlar yoki ko'rsatuvlarda texnologik tanaffuslar vujudga kelishi mumkin bo'lgan holatlarni nazorat qiladi.

3. XIZMATLARNI TAQDIM ETISH SHARTLARI

3.1. Proвайдер, Abonent yer usti raqamli televizion (RTV) tarmog'iga ulanishi sharti bilan, Abonent uskunalaridan foydalangan holda xizmatlar taqdim etadi.

3.2. Xizmatlar faqat Hududda va Abonentning shaxsiy hisob raqamida pul mablag'lari mavjudligida, va Abonent tomonidan mazkur Shartnoma shartlariga rioya qilishi sharti bilan taqdim etiladi.

4. XIZMATLAR QIYMATI VA TO'LOV TARTIBI

4.1. Shartnoma qiymati mazkur Shartnomaning 11-bo'limida ko'rsatilgan bir yo'la va har oylik to'lovlar miqdorlaridan shakllanadi va Abonent tanlagan telekanallar Paketi, Qo'shimcha xizmatlar va Sarflanadigan materiallarga bog'liq holda o'zgartirilishi mumkin, bu mazkur Shartnomaning ajralmas qismi hisoblangan Qo'shimcha kelishuv, schet-faktura va/yoki bajarilgan ishlar dalolatnomasi bilan rasmiylashtiriladi.

4.2. Taraflar Proвайдер Xizmati, Qo'shimcha xizmatlar, Sarflanadigan materiallarni, tasdiqlangan ro'yxat va tariflar bo'yicha taqdim etishiga kelishdilar. Amaldagi tariflar Proвайдер ofisi va/yoki Saytida ko'rsatilgan.

4.3. Xizmat va Qo'shimcha xizmatlarning tariflarini o'zgartirish, Proвайдер tomonidan bir tomonlama amalga oshiriladi, Abonentni ogohlantirish sharti mazkur Kelishuvning 4.13-bandi ga muvofiq amalga oshiriladi.

4.4. Abonent uskunolari schet-fakturasini va topshirish-qabul qilish dalolatnomasini imzolangandan so'ng Abonentning egaligiga o'tadi.

4.5. Mazkur Shartnoma bo'yicha barcha to'lovlar O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasi - So'mda Proвайдерning mazkur Shartnomaning 12-bandi da ko'rsatilgan hisob raqamiga pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

4.6. To'lovlar Shartnoma imzolangandan kundan boshlab 5 bank ish kuni ichida Abonent tomonidan bir yo'la 100% oldindan to'lov ko'rinishida amalga oshiriladi.

4.7. Abonent to'lovi, Abonentning Shaxsiy hisob raqamiga pul mablag'lari kelib tushgan va Xizmat ulangan paytdan boshlab hisoblanadi.

4.8. Har oylik abonent to'lovi keyingi oy boshlanishidan kechikmasdan besh (5) kun oldin 100% oldindan to'lanadi. Abonent to'lovi 1 (bir) oydan ortiq muddat uchun to'lanishi mumkin. Bunda, har bir kalendar oyning birinchi sanasida, Abonentning Shaxsiy hisob raqamida mavjud pul mablag'lari joriy kalendar oy uchun abonent to'loviga teng miqdorga kamayib boradi. Abonentning shaxsiy hisob raqamida pul mablag'lari mavjud bo'lmasa, Xizmat ko'rsatish avtomatik tarzda to'xtatiladi.

4.9. Agar abonent proвайдер xizmatlaridan 3(uch) kalendar oydan oshiq foydalanmasa, uning xizmat varag'i muzlatiladi. Muzlatilgan xisob varaqasi qo'shimcha to'lov qilingandan so'ng faollashtiriladi. Abonent xisob varaqasiga to'lov amalga oshirsa xizmat avtomatik ravishda proвайдерning ASR ida faollashadi. Abonent to'lovi mablag' tushgan sanadan qat'iy nazar, joriy kalendar oyi uchun pul yechiladi.

4.10. Abonent Proвайдер Xizmatlaridan foydalanish uchun 3 (uch) kalendar oyidan ortiq muddat ichida to'lovni amalga oshirmagan (Abonentda Proвайдер oldida qarzdorlik mavjud emasligi sharti bilan) va Proвайдерga 5.4.7-bandga muvofiq Xizmatlardan foydalanmayotganligini to'g'risida Proвайдер nomiga ariza bilan murojaat qilmagan bo'lsa, Abonent, Xizmatlarni foydalanish va faollashtirish bilan bog'liq bo'lgan to'lovlar 11.3. bandiga asosan oylik abonent to'lovi faollashtirilgan kundagi tariflar bo'yicha to'lanadi. Bunda Abonent to'lovi, Xizmatni faollashtirish sanasidan boshlab yechib olinadi.

4.11. Abonent uning Shaxsiy hisob raqamida mavjud pul mablag'lari haqida ma'lumotni Proвайдер ofisida, Call-Center va/yoki Shaxsiy kabinet orqali olishi mumkin.

4.12. Qo'shimcha xizmatlar (telekanallarning qo'shimcha to'plamidan tashqari) va/yoki sarflanadigan materiallarning narxi Abonent tomonidan qoplanadi. Ko'rsatilgan xizmatlar uchun 5 bank kuni ichida to'lanishi kerak. Pul mablag'lari xizmatlar ko'rsatilgan kundan boshlab Abonentning shaxsiy xisob varag'idan, pul mavjud bo'lsa yechib olinadi. Qo'shimcha xizmatlarni taqdim etish 11.3-banddan tashqari qo'shimcha shartnomani rasmiylashtirmasdan amalga oshiriladi va Abonentning ijobiy balansi bilan bajarilgan qo'shimcha xizmatlar, foydalanilgan sarf materiallari hajmi va qiymati schet fakturada, ushbu shartnomaning ajralmas qismi bo'lgan, bajarilgan ishlar dalolatnomasida ko'rsatilgan.

4.13. Tariflarning o'zgarishi ular Proвайдер Saytida joylashtirilganidan so'ng 15 kunda kuchga kiradi, bunda Abonent kiritilgan o'zgarishlar haqida tegishli tarzda va o'z vaqtida ogohlantirilgan hisoblanadi. Abonent tariflar o'zgarishi bilan rozi bo'lmagan taqdirda, mazkur Shartnomaning 8.2-bandiga muvofiq Shartnomani bekor qilishi mumkin. Abonentning yozma arizasi mavjud emasligi uning o'zgarishlarga roziligini bildiradi va Proвайдер Xizmatlari uchun yangi tariflar bo'yicha to'lovni amalga oshirish uchun asos bo'ladi.

5. TARAFLARNING HUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI

5.1. Proвайдер majburiyatlari:

5.1.1. Proвайдер Xizmat sifatini ta'minlash uchun barcha zarur choralarni ko'rish;

5.1.2. Abonent uskunalarini o'rnatish, talabnoma kelib tushgan kundan boshlab 5 (besh) ish kuni ichida, Abonent mazkur Shartnomaning 4-bo'limiga muvofiq to'lovni amalga oshirganidan so'ng o'rnatiladi. Talabnomani bajarish muddati, Abonent va Proвайдерga bog'liq bo'lmagan vaziyatlar vujudga kelgan taqdirda, Proвайдер tomonidan uzaytirilishi mumkin.

- 5.1.3.** Abonent tomonidan tanlangan asosiy va qo'shimcha telekanallar paketidan asosan Xizmatlarni taqdim etish, mazkur Shartnomaning 7-bo'limida keltirilgan holatlar bundan istisno;
- 5.1.4.** Proвайder xizmatlarining sifati keskin yomonlashsa, Abonentdan talabnoma kelib tushgandan so'ng 5 (besh) ish kuni ichida nosozliklarni bartaraf etish, mazkur Shartnomaning 6.5-bandi va 7-bo'limida keltirilgan holatlar bundan istisno. Talabnomani bajarish muddati, Abonent va Proвайderga bog'liq bo'lmagan holatlar vujudga kelgan taqdirda, Proвайder tomonidan uzaytirilishi mumkin;
- 5.1.5.** Abonent talabiga asosan uning Shaxsiy hisob raqamida aks ettirilgan hisob-kitoblar holati to'g'risida to'liq ma'lumotlarni taqdim etish;
- 5.1.6.** Abonentga xizmatlarni taqdim etish tartibi haqida batafsil ma'lumotni Proвайderning ofislarida, Sayt yoki Call-Center orqali taqdim etish;
- 5.1.7.** Texnik zaruriyatlar bo'yicha (profilaktika ishlarini bajarish) xizmat ko'rsatilishi vaqtincha to'xtatilgan taqdirda, tegishli ma'lumotni Saytda va/yoki "chopar satr"da joylashtirish yo'li bilan Abonentni kamida bir sutka avval ogohlantirish. Abonent bunday ma'lumotni Proвайderga bog'liq bo'lmagan sabablar tufayli olmasa, Proвайder Abonent o'z vaqtida ogohlantirilmaganligi uchun javobgar bo'lmaydi va bu munosabat bilan e'tirozlar qabul qilinmaydi;
- 5.1.8.** Proвайder aybi bilan xizmatlar taqdim etilmagan taqdirda, Abonent murojaati bo'yicha Proвайder manziliga yozma ariza topshirilgan kundan boshlab, Abonent to'lovini qayta hisoblash;
- 5.1.9.** To'lovni o'z vaqtida to'lamaganligi uchun, tuxatilgan Xizmatlarni, Qo'shimcha xizmatlar (Qo'shimcha телеканаллар paketi) ko'rsatilishi bir sutka ichida, Abonent tomonidan kiritilgan mablag'lar to'laganligi tasdiqlovchi hujjat Proвайderga taqdim qilganidan so'ng amalga oshirish;
- 5.1.10.** Hisobot oyidan keyingi oyning 10 (o'ninchi) sanasigaacha hisob fakturasini elektron tarzda taqdim etish;
- 5.1.11.** Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi.
- 5.2. Proвайder huquqlari:**
- 5.2.1.** Abonentni ogohlantirmasdan, vakolatli organ tomonidan Hududda namoyish etishga ruxsat etilgan asosiy va qo'shimcha telekanallar paketidan u yoki bu teledasturlarni qo'shish yoki olib tashlash yo'li bilan Telekanallar paketini o'zgartirish;
- 5.2.2.** Abonentning Shaxsiy hisob raqamida pul mablag'lari yetishmovchiligi munosabati bilan yoki Abonentda Qo'shimcha xizmatlar va Sarflanadigan materiallar uchun to'lov bo'yicha qarzdorlik vujudga kelsa, Xizmatlarni, Qo'shimcha xizmatlar (Qo'shimcha telekanallar paketi) ko'rsatishni to'xtatib qo'yish;
- 5.2.3.** Uskunalarini o'rnatish uchun texnik yoki boshqa sharoit bo'lmasa, xizmatlarni ko'rsatishni rad etish, bunda Abonentdan olingan to'lov mazkur Shartnomaning 8.5-bandi ga muvofiq qaytariladi.
- 5.3. Abonent majburiyatlari:**
- 5.3.1.** Belgilangan texnik talablar asosida Abonent uskunalaridan foydalanish va ularni saqlash tartibiga to'liq javob berish;
- 5.3.2.** Abonent uskunolari ishdan chiqqanda, darhol Proвайderga yozma ravishda xabar berish. Faqat shundagina Abonent yozma murojaat qilgan sanasidan Abonent uskunalarini tiklash sanasigacha Abonent to'lovi qayta hisoblanadi;
- 5.3.3.** Proвайder ofisida tegishli ravishda rasmiylashtirmasdan Abonent uskunalarini uchinchi shaxslarga bermaslik. Xabarnoma berilmagan bo'lsa, Proвайder uchinchi shaxslar tomonidan Abonent uskunolari ruxsatsiz ishlatilganligi uchun javobgar bo'lmaydi;
- 5.3.4.** Abonent uskunalarida mavjud ma'lumotlardan nusxa ko'chirmaslik, o'zgartirmaslik yoki boshqa usulda undan foydalanmaslik. Ma'lumotlarni ruxsatsiz ishlatish man etiladi va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi;
- 5.3.5.** Xizmat va Qo'shimcha xizmatlar uchun mazkur Shartnoma bilan nazarda tutilgan shart va tartibda o'z vaqtida va to'liq to'lovni amalga oshirish;
- 5.3.6.** Proвайder xodimlariga, ular xizmat guvohnomasini yoki ruxsatnomasini taqdim etganidan so'ng, Abonentni xizmatlarga ulash uchun Abonent uskunolari o'rnatiladigan xonalar yoki joylarga kirish imkoniyatini taqdim etish;
- 5.3.7.** Xizmatlardan foydalanganda vujudga kelgan muammolar haqida, shu jumladan televizion signal yo'qolganligi haqida darhol Call-Center ga qo'ng'iroq qilib yoki Proвайder ofisiga murojaat qilib, Proвайderga xabar berish;
- 5.3.8.** Mazkur Shartnomada keltirilgan abonent ma'lumotlarida (familiyasi, ismi, otasining ismi, turar joyi, telefonlar raqamlari) o'zgartirishlar haqida 5 kun ichida xabar berish;
- 5.3.9.** Yangi axborot xabarnomalar, Xizmatlar bo'yicha tariflar o'zgarishi, Qo'shimcha xizmatlar ro'yxati, Xizmatlar o'chirilishi va Qo'shimcha telekanallar paketi, profilaktika ishlari, qarzdorlik mavjudligi va hokazolar to'g'risida ma'lumotlar bilan tanishib chiqish uchun, Proвайder Saytini/Shaxsiy kabinetini muntazam ravishda, haftada kamida bir marta tanishib turish;
- 5.3.10.** Ommaviy namoyish, keyinchalik namoyish qilish uchun ko'rsatuvlarni yozib olishni amalga oshirmaslik, hamda o'z uskunalaridan foyda olish uchun foydalanmaslik, shu jumladan uni kabel televideniyesi yoki boshqa televideniya tarmog'iga ulash yo'li bilan, hamda Abonent uskunalaridan mazkur Shartnoma bilan nazarda tutilmagan maqsadlarda foydalanmaslik;
- 5.3.11.** Uning berilgan shaxsiy identifikatsiya ma'lumotlarining maxfiyligini saqlash;
- 5.3.12.** Elektron hisob-fakturani olgandan so'ng, 1 (bir) ish kuni davomida elektron raqamli imzo bilan tasdiqlash;
- 5.3.13.** O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq rasmiylashtirilgan shartnoma / Qo'shimcha kelishuvning asl nusxasini u imzolangandan so'ng bir oy ichida Proвайderga qaytarib berish.
- 5.4. Abonent huquqlari:**
- 5.4.1.** Mazkur Shartnoma bilan nazarda tutilgan xizmatlar va Qo'shimcha xizmatlarni foydalanish;
- 5.4.2.** O'z Shaxsiy hisob raqami ahvoli haqida ma'lumot so'rash, Xizmatlar bo'yicha Proвайder ofisi, Sayti yoki Call-Center orqali maslahat olish, mazkur Shartnoma bilan nazarda tutilgan boshqa huquqlardan foydalanish. So'rov berilganda, Abonent o'z abonent ma'lumotlarini taqdim etishi kerak: Shartnoma raqami, STIR yoki Abonent uskunasi raqami;
- 5.4.3.** Proвайderga mazkur Shartnomaga asoslanib Proвайder majburiyatlari bajarilishi bo'yicha, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq e'tirozlar keltirish;
- 5.4.4.** Abonent ikki va undan ko'p nuqtalarni ulagan taqdirda, barcha tuzilgan Shartnomalar bo'yicha Shaxsiy raqamlarni birlashtirish;

- 5.4.5.** Provayderni yozma ravishda ogohlantirib, Abonent uskunalarini uchinchi shaxslarga berish. Provayderga xabar berilmagan bo'lsa, Provayder uchinchi shaxslar Abonent uskunalaridan ruxsatsiz foydalanganligi uchun javobgar bo'lmaydi;
- 5.4.6.** Telekanallar Paketini almashtirish va/yoki Qo'shimcha telekanallar paketini o'chirish, Provayder ofislarida yoki Shaxsiy kabinet orqali joriy kalendar oyini tugashidan kamida 3 (uch) ish kuni avval o'zgartirish. Xizmat narxi Provayder Saytida ko'rsatilgan. O'zgartirishlar, Abonentning ijobiy balansi mavjudligi sharti bilan, keyingi kalendar oyining birinchi sanasidan kuchga kiradi;
- 5.4.7.** Qo'shimcha xizmat orqali "Vaqtincha o'chirish", 12 kalendar oyi muddatga qadar Abonent to'lovini hisoblamagan holda xizmat taqdim etilishini to'xtatib turish. Xizmat narxi Provayder Saytida keltirilgan. Mazkur xizmatdan foydalanish uchun, Abonentning ijobiy balansi mavjudligida xizmatdan foydalanish rejalashtirilayotgan oydan ikki oy oldin Provayder manziliga yozma ariza jo'natish kerak yoki Shaxsiy kabinet orqali rasmiylashtirish kerak. Ariza taqdim etilmasa, yoki u ko'rsatilgan muddatdan kechroq topshirilsa, abonent to'lovi umumiy shartlarda hisoblanadi va qayta hisoblanmaydi. Agar "Vaqtincha o'chirish" xizmatidan foydalanayotgan Abonent Provayder xizmatlarini muddatidan avval faollashtirishni istasa, Abonent Xizmatdan foydalanish sanasidan qat'iy nazar, joriy oy uchun abonent to'lovini to'liq hajmda to'lashi kerak;
- 5.4.8.** 8.2-bandga muvofiq Provayder bilan shartnomani bekor qilish;
- 5.4.9.** Xizmatlardan sutkada 24 (yigirma to'rt) soat, haftada 7 (yetti) kun davomida foydalanish, Provayder, ko'rsatuvchilar tomonidan rejalangan profilaktika va reglament ishlarini bajarish uchun tanaffuslar bundan istisno, ular bajarilishi to'g'risida ma'lumot Provayder Sayti va/yoki "chopar satr" orqali e'lon qilinadi;
- 5.4.10.** Provayderga yozma ariza bilan murojaat qilgandan so'ng, Shaxsiy kabinetga kirish imkoniyatiga ega bo'lish.

6. TARAFLAR JAVOBGARLIGI

- 6.1.** Provayder televidenie signalining sifatini amaldagi standartlarga muvofiq ta'minlaydi va o'z majburiyatlarini bajarish uchun, mazkur Shartnoma bilan nazarda tutilgan tartib va shartlarga, hamda O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgarlikni o'z zimmasiga oladi.
- 6.2.** Mazkur Shartnoma bo'yicha Qo'shimcha xizmatlar (Qo'shimcha telekanallar paketidan tashqari) Provayder aybi bilan o'z vaqtida taqdim etilmagan taqdirdan, Provayder Abonentga har bir kechiktirilgan kun uchun taqdim etilmagan Qo'shimcha xizmatlar hajmining 0,5% miqdorida, ammo taqdim etilmagan Xizmat qiymatining 50% dan oshmagan miqdorda penya to'laydi.
- 6.3.** Qo'shimcha xizmatlar (Qo'shimcha telekanallar paketidan tashqari) va / yoki Sarflanadigan materiallar uchun o'z vaqtida to'lov amalga oshirilmasa, Abonent Provayderga har bir kechiktirilgan kun uchun kechiktirilgan to'lovning 0,4% miqdorida, ammo taqdim kechiktirilgan to'lovning 50% dan oshmagan miqdorda penya to'laydi.
- 6.4.** Abonent Provayder xizmatlari uchun to'lovlar to'g'ri amalga oshirilishi uchun javobgar hisoblanadi.
- 6.5.** Provayder quyidagilar uchun javobgar bo'lmaydi:
- 6.5.1.** Abonent uskunolari nosozligi yoki Abonenti undan noto'g'ri foydalanganligi oqibatida, hamda Provayderga bog'liq bo'lmagan boshqa sabablar sababli televidenie signali sifatsizligi;
- 6.5.2.** Televidenie dasturlari mazmuni;
- 6.5.3.** Uskunalar, dasturiy ta'minot almashtirilishi yoki Provayderning texnik tizimlarining ish qobiliyatini saqlash va rivojlantirish zaruriyati bilan bog'liq holda o'tkazilayotgan ishlar vaqtida Xizmat taqdim etilishi qisman yoki to'liq to'xtatilganligi;
- 6.5.4.** Elektr tarmog'ida kuchlanish, harorat rejimi, Abonentning televizor uskunasi texnika talablariga javob bermasligi kabi foydalanish uchun normal sharoitlar mavjud emasligida, tasvir sifati yomonligi;
- 6.5.5.** Abonent uskunolari ishdan chiqishi;
- 6.5.6.** Abonent tomonidan mazkur Shartnoma shartlari bajarilmasligi;
- 6.5.7.** Operator tomonidan signalni uzatish standartini o'zgartirilishiga;
- 6.5.8.** Dasturlar jadvali o'zg'arishi yoki asosiy va/yo qo'shimcha telekanallar paketida u yoki bu kanal namoyish etilishi tugatilganligi (to'xtatilganligi);
- 6.5.9.** Abonent uskunolari mustaqil va/yoki uchinchi shaxslar tomonidan o'rnatilgan bo'lsa, televidenie signali sifatsiz qabul qilinishi.
- 6.6.** Penya to'lanishi taraflarni mazkur Shartnoma bilan nazarda tutilgan majburiyatlarini bajarishdan ozod etmaydi.
- 6.7.** Mazkur Shartnoma bilan nazarda tutilmagan Tafarlarni javobgarlikka tortilish choralari O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq qo'llaniladi.
- 6.8.** Tomonlar O'zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlarining korrupsiya qarshi me'yorlarga rioya qilishi va obuna shartnomasi bo'yicha ularning huquqlari yoki majburiyatlari bilan bog'liq normalarini buzishi mumkin bo'lgan har qanday xatti-harakatlarni amalga oshirmaslikka, shu jumladan (chqlamagan holda) jismoniy yoki yuridik shaxslarga, tijorat tashkilotlariga, davlat va boshqaruv organlari, davlat xizmati, nodavlat yuridik shaxslarga va ularning vakillariga noqonuniy to'lovlarni, naqd pul yoki boshqa shakldagi poralarni taklif qilishni, ruxsat berish va va'da berish kabi harakatlarni amalga oshirmasligi lozim.
- Tafarlardan biri tomonidan ushbu bandning birinchi hatboshisida ko'rsatilgan majburiyatlar buzilgan taqdirdan, boshqa taraf shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarishdan bir tomonlama bosh tortishga haqlidir. Ushbu bandga muvofiq shartnomasi bekor qilingan taqdirdan Tomonlar bir-biriga ziyon/zararni qoplamaydi (ko'rsatilgan xizmatlar haqqi yoki Abonent to'lovlari bo'yicha Abonent majburiyatlari bundan mustasno).

7. FORS-MAJOR

- 7.1.** Tomonlar mazkur Shartnoma imzolanganidan so'ng yengib bo'lmas kuchga ega vaziyatlar oqibatida o'z majburiyatlarini bajarmasa yoki qisman bajarmasa, ular javobgarlikdan ozod etiladi. Bunday vaziyatlarga, jumladan, quyidagilar kiradi: tabiiy ofatlar, tabiiy va sanoat fojialar, terroristik harakatlar, harbiy harakatlar, fuqarolik g'alyonlari, davlat hukumat organlari yoki mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari tomonidan mazkur Shartnoma bo'yicha Taraf faoliyatiga nisbatan cheklov yoki taqiq mavjud qarorlar qabul qilinishi,

sun'iy yo'ldoshdan signal darajasi pasayishi yoki yo'qolishi, hamda oldindan bilib bo'lmaydigan va bartaraf qilib bo'lmaydigan boshqa holatlar.

7.2. Mazkur Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarishga to'sqinlik qiladigan engib bo'lmas kuchga ega vaziyatlar vujudga kelganda, Tomonlar o'z majburiyatlarini bajarish muddati bunday vaziyatlar muddatiga, hamda ularning oqibatlarini bartaraf etish uchun zarur muddatga, ammo 60 (oltmish) kalendar kuni bilan ortiq bo'lmagan muddatga kechiktiriladi. Engib bo'lmas kuchga ega holatlar ko'rsatilgan muddatdan ortiq muddat ichida amal qilsa, yoki ular vujudga kelganda Tomonlarga ular aytilgan muddatdan ortiq davom etishi aniq bo'lsa, Tomonlar mazkur Shartnomani boshqa yo'l bilan bajarish ehtimolini muhokama qilishga yoki zararlarini qoplamagan holda uni bekor qilishga roziligini bildirishadi.

8. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI, UNGA O'ZGARTIRISH KIRITISH VA BEKOR QILISH TARTIBI

8.1. Mazkur Shartnoma uni Tomonlar imzolanganidan so'ng kuchga kiradi va Tomonlar uni bekor qilguncha yoki tugatmaguncha amal qiladi.

8.2. Abonent Provayderga yozma ariza topshirib, pasportining asl nusxasini taqdim etib, mazkur Kelishuvni bir tomonlama bekor qilishi mumkin. Foydalanilmagan davr uchun oldindan qilingan to'lov Abonentning yozma talabnomasi asosida 15 bank ish kuni ichida qaytariladi. "Ulanish" xizmati uchun to'langan pul qaytarib berilmaydi.

8.2.1. Mazkur Shartnoma 8.2-band asosida tugatilganidan so'ng, u qayta tiklanmaydi. Abonentning Shaxsiy hisob raqamiga pul mablag'lari tushishi, Provayder Xizmatlarini tiklash uchun asos bo'lmaydi. Abonent Provayder Xizmatlaridan foydalanish uchun yangi Shartnomani tuzishga haqli.

8.3. Abonent tomonidan, ruxsatsiz uchinchi shaxslarga xizmatlardan foydalanishga qaratilgan harakatlari uchun Provayder Abonentga jarimalar to'lamasdan va ishlatilmagan pul mablag'larini qaytarmasdan mazkur Kelishuvni bir tomonlama bekor qilishi mumkin.

8.3.1. Qarzdorlik vujudga kelganidan so'ng 3 oy ichida qarzdorlikni to'lamaslik, O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligiga muvofiq E'tiroz berilganidan so'ng.

8.4. Provayder faoliyati tugatilganda, Shartnoma bekor qilinadi.

8.5. Abonent uskunalarini o'rnatish uchun texnik yoki boshqa imkoniyat bo'lmasa, Shartnoma bekor qilinadi, pul mablag'lari 15 bank ish kuni ichida qaytariladi.

8.6. Mazkur Shartnomaga barcha o'zgartirish va qo'shimchalar Provayder Saytida chop etiladi. Abonent Shartnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar bilan rozi bo'lmasa, u 8.2-bandga muvofiq Shartnomani bekor qilishi mumkin. Yozma ariza mavjud emasligi, uning o'zgartirish va qo'shimchalar bilan rozi ekanligini bildiradi. Abonent tomonidan mazkur Shartnomaga kiritgan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar faqat ular yozma ravishda bajarilgan bo'lsa, haqiqiy hisoblanadi.

9. NIZOLARNI HAL QILISH

9.1. Mazkur Shartnomani bajarishda vujudga kelishi mumkin bo'lgan barcha nizolar imkoniyat qadar Tomonlar o'rtasida muzokaralar yo'li bilan hal etiladi. Tomonlar o'rtasida o'zaro kelishuvga erishish imkoni bo'lmasa, vujudga kelgan nizo O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq sudga ko'rib chiqiladi.

10. YAKUNIY SHARTLAR

10.1. Abonent mazkur Shartnomani tuzish vaqtida Xizmat taqdim etilishining barcha shartlari, shu jumladan Provayderning raqamli televidenie signalini qabul qilish texnik imkoniyatlari mavjud Hudud haqida, amaldagi tariflar to'g'risida xabardor qilanganligini va Abonentga Xizmatlarni taqdim shartlari to'g'risida to'liq bo'lmagan ma'lumot berilganligi bilan bog'liq e'tirozlari Provayderga nisbatan yo'qligini tasdiqlaydi.

10.2. Shartnoma bir xil yuridik kuchga ega ikki nusxada tuzilgan, har bir Tomonda bittadan nusxa saqlanadi.

10.3. Provayderning Qo'shimcha xizmatlariga (Qo'shimcha telekanallar paketidan tashqari) kafolat muddati bajarilgan ishlar dalolatnomasi imzolanganidan so'ng 1 (bir) kalendar oy deb belgilanadi. Mazkur muddat ichida Abonent aybi bilan nosozliklar vujudga kelsa, Provayder mutaxassislarini chaqirish, ularni chaqirish kunida amalda bo'lgan tarif bo'yicha to'lanadi.

10.4. Abonent qurilmalari bo'yicha kafolat, ish lab chiqaruvchi tomonidan o'rnatiladi. Abonent uskunalariga Servis xizmatlar ko'rsatish to'g'risida ma'lumotlarni Provayder ofislari, rasmiy veb-sayti yoki Call-Center orqali bilib olish mumkin.

10.5. STB qurilmasi uchun kafolat muddati Abonent tomonidan – hisob varaq faktura va bajarilgan ishlar dalolatnomasini imzolagan kundan boshlab 12 kalendar oy muddatda belgilanadi.

10.6. SAM modul uchun kafolat muddati Abonent tomonidan – hisob varaq faktura va bajarilgan ishlar dalolatnomasini imzolagan kundan boshlab 1 kalendar oy muddatda belgilanadi.

10.7. Abonent qurilmalari uchun qo'shimcha servis xizmatlar bo'yicha kafolat muddati tomonlarning bajarilgan ishlar to'g'risidagi dalolatnomani imzolagan kundan boshlanib 1 oy qilib belgilanadi. Abonent / foydalanuvchining aybi bilan kafolat davri mobaynida nosozliklar yuz berganda, servis xizmatlar amaldagi tariflarga muvofiq to'lanadi.

11 HIZMATLAR, USKUNALAR VA SARFLANADIGAN MATERIALLAR QIYMATI *

11.1. Bir yo'la to'lovlar:

№	Ishlar / qo'shimcha xizmatlar nomlanishi	O'lchov birligi	Narxi, so'm	Miqdori	Jami, so'm

JAMI:

Berilgan uskunalar Abonent ishonchnomani taqdim etishi shart

11.2. Bir yo'la to'lovlar:

№	Ishlar / qo'shimcha xizmatlar nomlanishi	O'lchov birligi	Narxi, so'm	Miqdori	Jami, so'm
JAMI:					

Nazarda tutilmagan xarajatlar bo'lsa, Abonent mazkur Shartnomaning 4.12-bandiga muvofiq bajarilgan ishlar / xizmatlar fakti bo'yicha qo'shimcha to'lovni amalga oshiradi.

11.3. Oylik to'lovlar:

№	Xizmat / telekanallar paketi nomlanishi**	O'rnatish manzili	O'lchov birligi	Narxi, so'm	Miqdori	Jami, so'm
JAMI:						

* Xizmat, uskunalar va qo'shimcha sarflanadigan materiallar qiymati Shartnoma imzolangan kundagi narxlarda keltirilgan.

Barcha narxlar QQS bilan ko'rsatilgan.

** Telekanallar paketlari (asosiy va qo'shimcha) – Abonentning so'roviga ko'ra vaqtincha o'chirilishi mumkin, bunda Shartnomaga Qo'shimcha kelishuv tuzilmaydi.

12. REKVIZITLAR**PROVAYDER:**

«Radioaloqa, radioeshittirish va televideniye markazi» MChJ

Pochta manzili: 100202, Toshkent shahri, Yunusobod tumani,
A. Temur ko'chasi, 109A-uy.

Hisob raqami: 20208000800155269003

Bank: AT «Aloqabank» bosh ofisida, Toshkent sh.

MFO: 00401

STIR: 200625403

IFUT: 60200

Tel/Faks: +998 71 2021150

Bosh direktor v.v.b.

_____ **Tashpulatov Sh.Sh.**

M.O'.

ABONENT:

Pochta manzili: _____

Hisob raqami: _____

Bank: _____

MFO: _____

STIR: _____

IFUT: _____

Tel/Faks: _____

_____ / _____ /

M.O'.